



18- laboratoriya ishi

Cho‘yan va po‘lat namunalari bilan tanishish

1. Sizga berilgan cho‘yan va po‘lat namunalarini ko‘zdan kechiring.
2. Quyidagi tajriba yordamida cho‘yan va po‘latning o‘zaro farqlarini bilib oling.
3. Bitta probirkaga cho‘yan donachasidan, ikkinchisiga esa po‘lat donachasidan soling, donachalarning og‘irligi bir xil bo‘lishi kerak. Probirkalarga 2—4 *ml* dan suyultirilgan xlorid kislota qo‘shing va sekin qizdiring. Agar gazlarning shiddat bilan ajralishi to‘xtasa, probirkalarga yana ozgina kislota quying va buni gaz ajralib chiqmay qolguncha davom ettiring.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq

1. Sodir bo‘lgan hodisalarni izohlang.
2. Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.
3. Probirkalardan qaysi birida shiddatli (kuchliroq) gaz ajralib chiqdi?
4. Kuzatganlaringizni izohlang.